

ARAB VA O'ZBEK TILLARIDA KO'MAKCHILARNING QIYOSIY TAHLILI

Rashidova Amina O'ktam qizi

O'zDJTU Sharq filologiyasi 2-kurs talabasi

rashidovaamina0733@gmail.com

Umurzakova A.U.

Ilmiy rahbar. O'zDJTU Arab tili tarjima nazariyasi

va amaliyoti kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada arab va o'zbek tillaridagi ko'makchilarning o'xshash va farqli jihatlari, ularning turlari, foydalanish qoidalari, ma'nolari va gapdagi vazifalari qiyoslab o'rganilib chiqilgan.

Kalit so'zlar: "harf" so'z turkumi, "harf jar", ko'makchi, "ism majrur", qaratqich kelishigi.

Abstract: In this article, the similarities and differences of prepositions in Arabic and Uzbek languages, their types, rules of use, meanings and functions in the sentence are compared and analysed.

Key words: "harf", "huruf jar", preposition, "ism majrur", genitive case.

Аннотация: В данной статье сравниваются и анализируются сходства и различия, виды, правила использования, значение и функции предлогом на арабском и узбекском языках.

Ключевые слова: "харф", "хуруф жар", предлог, "исм мажрур", родительный падеж.

O'zbek tilida ko'makchi – yordamchi so'z turkumining bir turi hisoblanadi. Mustaqil ma'no anglatmaydi. Gapda ot yoki otlashgan so'zlardan keyin kelib, ularni boshqa so'zlarga tobelanish yo'li bilan bog'laydi. Vosita, maqsad, sabab, vaqt, makon kabi sintatik munosabatlarni ifodalash uchun qo'llanadi. Masalan:

Pichoq bilan kesdi.

Ko'makchi qaysi so'zdan keyin kelsa, o'sha so'z bilan birgalikda bir so'roqqa javob bo'lib, bir xil gap bo'lagi vazifasini bajaradi.

Arab tilida esa so'z turkumlari uchga bo'linadi: ism, fe'l va harf. Harf so'z turkumining kattagina qismini ko'makchilar tashkil qiladi. Arab tilida kelishiklar 3 ta bo'lganligi sababli voqea-hodisaning o'rin, payt, maqsad, sabab, vosita, birgalik kabi munosabatlari, asosan, ko'makchilar yordamida ifodalanadi. Bunday ko'makchilar "حروف جر" (huruf jar) ya'ni, o'zidan keyin kelgan so'zni qaratqich kelishigida kelishini talab qiladigan ko'makchilar deyiladi. "حرف جر" (harf jar) dan keyin kelgan so'z, doim ism so'z turkumidagi so'z bo'lib, "اسم مجرور" (ism majrur) deb nomlanadi.



O'zbek tilida ko'makchilar o'zlari bog'langan so'zdan keyin keladi, arab tilida esa oldin keladi va shu jihatdan rus va ingliz tilidagi predlog (old ko'makchi)larga o'xshaydi.

Arab tilida old ko'makchilar o'zi bog'lanib kelgan aniq yoki noaniq so'zdan oldin kelib, ularni qaratqich shaklida kelishini talab qiladi: على المكتب

O'zbek tilida ko'makchilar 2 turga bo'linadi: sof va vazifadosh.

1. Sof ko'makchilar lug'aviy ma'nolarini butunlay yo'qotib, vazifa jihatidan kelishik qo'shimchalariga yaqin turadigan so'zlardir: bilan, uchun, kabi, sari, singari, sayin, uzra, qadar, yanglig'.

2. Ko'makchi vazifasida qo'llanuvchi so'zlar ya'ni vazifadosh ko'makchilar. Gapda ba'zi o'rinlarda mustaqil so'z va ba'zi o'rinlarda ko'makchi bo'lib keladi. Bular quyidagi so'z turkumlardan ko'makchilarga ko'chadi:

1) ot turkumidan: tomon, tashqari, bo'yi, chamasi, holda, yo'sinda;

2) sifatdan: sababli, tufayli, qarshi, chog'li, doir, muvofiq, o'zga, boshqa;

3) fe'ldan: qarab, qaraganda, ko'ra, tortib, degan, deydigan, osha, bo'ylab, yarasha, qaramasdan, qaramay, qarata;

4) ravishdan: avval, so'ng, keyin, burun, ilgari, beri, beri, buyon, asosan, binoan.

Arab tilida ham old ko'makchilar 2 turga bo'linadi: tub va yasama.

1. Tub ko'makchilar – yolg'iz o'zi hech qanday ma'no anglatmaydigan, faqat boshqa so'zlar bilan kelgandagina ma'no biladiradigan predloglardir.

في da, ichida- في البيت uyda

على da, ustida- على الطاولة stol ustida

إلى ga, tomon- إلى الجامعة universitetga

من dan- من السوق bozordan

عن haqida- عن الرحلة safar haqida

حتى gacha- حتى المساء kechgacha

مع bilan, birgalikda مع صديقي do'stim bilan

عند huzurida عند المدير direktor huzurida

منذ dan beri- منذ السنة bir yildan beri

كـ dek, kabi- كالشمس quyoshdek

لـ ga, -ning, uchun-

أشترت لأخي. Akam uchun sotib oldim.

هذا الكتاب لزيد. Bu kitob Zaydniki.

"ل" ko'makchi "ال" artiklining oldidan kelsa, "ا" yozilmaydi.

المعلم لـ + المعلم = للمعلم

Ismning birinchi harfi "ل" bo'lsa, artiklning "ل" harfi ham yozilmaydi.

اللغة لـ + اللغة = للغة

2. Yasama (yoki ravish) ko'makchilar ba'zi ismlardan, masalan, otlardan yasaladi. Ism ko'makchiga aylanganda tanvinsiz va tushum kelishigida bo'ladi. Ular o'zidan keyingi so'zni jar holatida kelishini talab qilsa ham, deb atalmaydi. Asl arab manbalariga tayangan holda ism so'z turkumidan yasalgan ko'makchilar ravish deb ataladi, gap tahlilida ular mudof- مضاف va ulardan keyingi turgan so'z- إليه deb tahlil qilinadi.

فوق – tepa tomon

فوق البيت uyning tepasida

جنب – yonida

جنب السيارة mashinaning yonida

خارج – tashqari

خارج المدينة shahar tashqarisida

Yasama ko'makchilar إلى من ل kabi tub ko'makchilar bilan bo'glanib, murakkab ko'makchilarni ham tuzib kelishi mumkin.

بعد=من بعد dan so'ng-

بين=من بين orasidan

ل أجل=من أجل yo'lida, uchun

O'zbek tilida bo'lgani singari arab tilida ham bitta ko'makchini turli ma'nolarda ishlatish mumkin. Misol uchun quyidagilar:

Do'stim bilan suhbatlashdim (birgalik).

Bobosi hassa bilan eshikni ochib kirib keldi (vosita).

Qo'ng'iroq chalinishi bilan o'qituvchi sinfga kirdi (payt).

Gullarga mehr bilan suv quyayotgan edi (holat).

Arab tilida ham tub ko'makchilar ko'p ma'noli bo'ladi:

الكتاب في الخزانة.

Kitob javonda.

سأذهب الى العاصمة في الصباح.

Poytaxtga ertalab ketaman.

الجامعة بعيدة عن السوق.

Universitet bozordan uzoqda.

تحدثت عن الفندق.

Mehmonxona haqida gapirdim.

Ravish ko'makchilar bundan mustasno, ular faqat bir ma'noli bo'ladi:

ذهب إلى الجزائر قبل يوم.

Jazoirga bir kun oldin ketdi.

Ko'makchili so'zlarning gapdagi vazifalari:

Ko'makchi o'zidan keyingi kelgan ism bilan bitta bo'lak vazifasini bajaradi. Bundan keib chiqadiki, ko'makchili ismlar gapda kesim, aniqllovchi, to'ldiruvchi va hol vazifasida kelishi mumkin.

السيارة لمحمود.

Mashina Mahmudniki (kesim).

هذا بيت من الخشب.

Bu yog'ochli (aniqllovchi) uy.

كتب بالقلم.

Qalam bilan (to'ldiruvchi) yozdi.

يدرس في الجامعة.

Universitetda (hol) o'qiydi.

Ko'makchili kesim egadan oldin kelishi mumkin, bunday gaplar odatda mavjudlikni bildiradi va o'zbek tiliga "bor" deb tarjima qilinadi.



في المدينة حديقة.

Shaharda bog' bor.

Ko'makchili kesimdan keyin kelgan ega ko'pincha noaniq holatda keladi:

في الدار طفل صغير.

Hovlida kichkina bola bor.

Ko'makchili kesim o'rnida هنا – bu yerda yoki هناك – anavi yerda kabi ravishlarini ham ishlatish mumkin.

الحديقة هنا.

Sumka shu yerda.

السيارة هناك.

Mashina anavi yerda.

Xulosa qilib aytganda, arab tilidagi “حروف جر” (huruf jar)larni o'zbek tilidagi ko'makchilarga qiyoslanib, ba'zi farqlar va istisno holatlar tilning o'ziga xos xususiyatiga ega ekanligi arabiy manbalardan o'rganib chiqildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdujabborov A. “Arab tili”. Darslik. – Toshkent, 2005.
2. Erkaboyeva N. "O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami" 2016.
3. Xasanov M., Abzalova M. “Arab tili darslari”. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2009.
4. Sharq tillari (Arab tili) tili fanidan o'quv-uslubiy qo'llanma. – Jizzax, 2017.
5. الشيخ إبراهيم أحمد محمد الوقفي "تبسيط الأجرومية" – القاهرة – 2012